

O`TKIR VA SURUNKALI YIRINGLI SINUSITLARNI DAVOLASHNI TAKOMILLASHTIRISHDA NITROKSIDERGİK TIZIM KO`RSATKICHLARINING AHAMIYATI

G'ayrat Umrullayevich Lutfullayev

Otorinolarinologiya kafedrasi mudiri, Tibbiyot fanlari doktori, dotsent Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Dilshod Shodiyevich Fayzullayev

Otorinolarinologiya kafedrasi assistenti Samarqand davlat tibbiyot universiteti

ARTICLE INFO.

Kalit so`zlar: o`tkir sinusit, surunkali sinusit, burundagi sinus bo`shliqlar, etmoidit, frontit, gemisinusit, polisinusit.

Annotatsiya

Ushbu maqolada o`tkir va surunkali yiringli sinusitlarni davolashning zamonaviy usullari va ularni takomillashtirishda nitroksidergik tizimning o`ziga xos ahamiyati va jahon sog`liqni saqlash tizimidagi eng muhim o`rni keltirildi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Butun jahon Sog`liqni saqlash Tashkiloti bugungi kunda juda keng tarqalgan kasalliklarning ro`yxatini keltirib o`tar ekan, ular orasida insonlar uncha ahamiyat qaratmaydigan, ya`ni oddiy kasallik deb e`tirol etadigan, biroq davolamasa juda ko`plab boshqa kasalliklarning yuzaga keltirishi mumkin bo`lgan kasalliklarni keltirdi. Ular orasida turli bakteriologik va virusli kasalliklar, jumladan shamollash, gripp, sudurgi, qoqshol, ichak infeksiyasi kasalliklari, gelmintlar bilan bog`liq bo`lgan patologik holatlar, qorin tifi, zamburug`li kasalliklar kiradi. Shuningdek, tomoq, burun, quloq a`zoldagi turli salbiy holatlar, patologik holatlar ham yuqoridagi ro`yxatning davomi hisoblanadi. Ayniqsa, ular orasidan bugungi kunda keng tarqalgan, juda ko`plab bemorlarning salomatligiga jiddiy ta`sir ko`rsatayotgan o`tkir va surunkali yiringli sinusit kasalligidir. 2021-yil 27-sentabrda Amerika Qo`shma Shtatlarida o`tkazilgan "sinusitlarning etiologiyasi va ularni davolashning zamonaviy-innovatsion usul va metodlari" nomli butunjahon ilmiy-amaliy konferensiyada oxirgi besh yil Ichida olib borilgan tadqiqotlarning natijasi aytib o`tilde. Bunga ko`ra so`nggi besh yil Ichida surunkali va o`tkir yiringli kasalliklarning tarqalishi va davolanishi ular natijasida kelib chiqadigan xavfli kasalliklarning ro`yxati keltirib o`tildi. Quyidagi jadvalda kasallikning so`nggi 5-yil Ichida rivojlanishi ko`rsatib o`tilgan.

Sinusitning rivojlanishi	Yillar kesimida	Davolash statistikasi	U sababli kelib chiqqan kasalliklar	Yuzaga kelgan o`lim ko`rsatkichlari
15%	2017	32%	21%	23%
37%	2019	23%	24%	20%
44%	2020	42%	46%	28%
67%	2021	54%	61%	12%

Yuqoridagi jadvaldan ko`rinib turibdiki, sinusit kasalligining inson hayoti uchun na qadar xavfli ekanligi. Sinusit qanday kasalligi haqida tibbiy bilimlarimiz yetarli bo`lsagina, biz uni davolay olamiz. Xo`sh, sinusit qanday kasallik, uning etiologiyasi, profilaktikasi, davolash usullari haqida qisqacha to`xtalib o`tamiz. Bu bir yoki birqancha burun bo`shliqlariga ta`sir qiladigan yallig`lanish jarayoni hisoblanib barcha LOR a`zolari xastalıkları orasida birinchi o`rinni egallaydi. Burun yondosh bo`shliqlarining yallig`lanishi bo`shliq ichidagi ajralmani tabiiy yo`llar orqali chiqarilishi qiyin bo`lgan vaziyatta chiqariladi. Yuqoridagi jarayon burunning bir nechta bo`shliqlariga bir vaqtda tarqalsapulisinusit, bir tomondagi burun yondosh bo`shliqlari yallig`langanda – gemisinusit, burunning barcha yondosh bo`shliqlari yallig`langanda esa- pansinusit yuzaga keladi. Sinusitning o`tkir va surunkali turlari ajralib turadi va tibbiyotda eng keng tarqalgan turlari ham ayni shular sanaladi.

Sinusit sabab yuzaga keladigan belgilar:

- Tananing gipotermiyasi ya`ni tana haroratining keskin tushib ketishi,
- Allergik rinitning asoratlari,
- O`tkir respirator kasalliklar,
- O`tkir yuqumli kasalliklar,
- Jarohat va burun bo`shlig`I operatsiyalari,
- Pulpit va periodontit,
- Rinit va faringitning asoratlari,

Burun shilliq qavatining mayda o`smalari va unga tegishli fiziologik xususiyatlar. Sinusitga xos belgilar quyidagilardir:

- Tumovning to`xtovsizligi,
- Ba`zan nafas olishning qiyinlashuvi,
- Ba`zan burun va og`izdan noxush hidning kelishi,
- Bosh og`rishi, ayniqsa ertalab kuchayadigan bosh og`rishi,
- Ko`zlar ostida shishlar,
- Yuqori jag`da kuchli og`riq,
- Burundan yiringli oqimlarning kelishi,

O`tkir sinusit ko`p hollarda tumov, gripp, qizamiq, zaxm, sil, scarlatina kabi yuqumli kasalliklarning asorati sifatida ham rivojlanishi burun bo`shlig`I yot jismlari, burun va yondosh bo`shlig`idagi har xil jarohatlar ham ularning yallig`lanishiga sabab bo`ladi. Surunkali sinusit asosan biriktiruvchi to`qimada proliferatsiya jarayoni, plazmatik hujayralar infiltratsiyasi, limfotsitlar va yallig`lanish o`smalari va poliplari hosil bo`lishi bilan xarakterlanadi. Olim B.S.Preobrajenskiy va V.T.Palchun burun yondosh bo`shliqlarining yallig`lanishining quyidagi tasnifini keltirib o`tishdi.

- A. Ekssudativ – 1. Kataral 2. serozli 3. Yiringli
- B. Produktiv shakllari- 1. Polipozli 2. Devor oldi giperplastik
- C. Alterativ shakl- 1. Atrofik 2. Nekrotik 3. Kazeozli
- D. Aralash shakl – yiringli polipozli va kistozli-nekrotik
- E. Vazomotor va allergik sinusit

Sinusit kasalligining yuqoridagi ikki xildagi ko`rinishida bemorlarning holati, klinik o`zgarishlar turlicha bo`lishi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Shuning bilan birgalikda davo choralari ham tibbiy bilinmlardan kelib chiqqan holda avval bemorning umumiy va ayni damdagi holatini chuqur tekshirishdan boshlanadi. Albatta, klinik kechishi va belgilarining namoyon bo`lishida qarab bemorlarda kasallikning kechish muddati turlicha bo`ladi. Odatda O`tkir sinusitlar davomiyligi 4 haftagacha, o`rtacha o`tkir sinusitning davomiyligi esa 4-12 haftagacha, surunkali sinusitlarning davomiyligi esa 12-haftadan ko`pga cho`zilishi mumkin. Sinusitning har bir turida profilaktik ishlarni amalga oshirsa yanada yaxshi bo`ladi. Misol tariqasida, burun va nafas olish organlarini yaxshilab chiniqtirish, burun gimnastikasini bajarish, suvda suzish, yugurish, sport bilan muntazam shug`ullanish, toza va pokiza atmosferadan imkon qadar nafas olishga harakat qilish, yuqori nafas yo`llarini ravon qilib tozalash, organizmning rezonator funksiyasini tiklash muhim bo`lgan profilaktik ishlar hisoblanadi. O`tkir sinusitlarga tashxis qo`yishda albatta bemorning shikoyatlari inobatga olinadi. Agar yuqori jag` sohasida qattiq og`riqning paydo bo`lishi va boshning harxil qismida kuchli og`riq kuzatilishi mumkin. Nafas olish doimgiga nisbatan qiyinlashadi. Hid bilish sezgisi susayib bemorning umumiy ahvoli keskinlashadi. Bemorga sinusitning surunkali va o`tkir turida tashxis qo`yish uchun paypaslab tekshiruv, uskunalar orqali tekshiruv o`tkazilganda tashxis aniq va to`g`ri qo`yiladi. Rinoskop orqali tekshirilganda shilliq qavatning shishgani va u yerda yiringli ajralamalarning borligi kuzatiladi. Rentgenografiya, kompyuterli tomograf, endoskopiya va yuqori jag`ni teshish orqali shu bilan bir qatorda umumiy qon va siydik tahliliga qarab ham amalga oshiriladi. Karanar va aksial yo`nalishlarda bajarilgan KT va MRT tekshiruvini yumshoq to`qima tuzilmalarini aniqlashga yordam beradi. Shuni ham ta`kidlab o`tish joizki, 1,5-10 mGs li ultratovush to`lqinlari yordamida bajarilgan tekshiruv ham kasallikni aniqlashga juda katta yordam beradi. Quyidagi tekshiruvlardan bemor o`tkaziladi. Bemor shikoyatlari va anamnez ma`lumotlarini tahlil qilish, otorinolaringologik tekshiruv, rinoskopiya, biopsiya va sitologik tekshiruv, sinussoskopiya orqali amalga oshirish mumkin. Ushbu kasalliklarni davolashning o`ziga xos usullari mavjuddir. Turli xildagi dori preparatlari, xalq tabobati va shunga o`xshash usullar talaygina. Avvalo, tashxisni to`g`ri qo`yish davolashning yarmi hisoblanadi. Qolaversa, bugun butun dunyo tibbiyoti rivojlanayotgan bir paytda ushbu kasalliklarni davolashning yangicha ko`rinishlari maydonga kelmoqda desam xato bo`lmaydi. Ayniqsa bugun dunyo LOR sohasida ya`ni sinusit va unga o`xshash kasalliklarni davolashning takomillashuvida nitroksidergik tizimning ahamiyati juda kattadir. Bu usuldan juda ko`plab rivojlangan davalatlardan xususan, Hindiston, Isroil, Amerika, Buyuk Britaniya, Germaniya, Shvetsariya kabilar eng oldingi qatordalar.

Ushbu mamlakatdagi vrach-olimlar tomonidan ushbu tizim yordamida sinusitning turlarini davolashning takomillashuviga oid tavsiya va ko`rsatmalar berib borilmoqda. Jumladan, respublikamizdagi qator klinikalar va davlat kasalxonalarida ushbu tavsiyalarga amal qilgan holda va jahon tibbiyot birlashmasi bilan hamkorlikda davolash ishlari va ilmiy-amaliy tajribalar orttirilmoqda. O`zbekiston Sog`liqni Saqlash Vazirligi tomonidan olib borilayotgan qator chora-tadbirlar, yurtboshimiz tomonidan chiqarilayotgan qator farmon va farmoyishlar, soha mutaxassislarining berayotgan tavsiyalari va ushbu masalaga jiddiy yondashayotganlari, LOR vrachlarning tinimsiz ilmiy izlanishlarining samarasi o`laroq sohada birqancha rivojlanish va yuksalish kuzatilmoqda. O`tkir va surunkali yiringli sinusitlarni davolashni takomillashtirishda nitroksidergik tizim ko`rsatkichlarining ahamiyati bugungi kunda juda dolzarb va shu bilan birgalikda Katta ahamiyat kasb etadi desam mubolag`a bo`lmaydi. Xususan, nitroksidergik tizimdan o`tkir va surunkali kasalliklarni davolashda odatiy davolash choralari ancha qulay, oson, muhim va keng jamoatchilik qo`llab-quvvatlashi bilan juda ahamiyatlidir. Buni kopingina olimlar tadqiqotida ko`rish mumkin. Masalan Frankfurt olimlari nitroksidergik tizimdan o`tkir va surunkali kasalliklarni davolash kunning dolzabr muammosi va undan oqilona foydalanish esa har bir soha xodimining o`ziga xos metodi ekanligini ta`kidlashgan.

Bundan tashqari, Professor, doctor Tomas Verse ham bu na qadar to`g`ri ekanligini va 15-yillik tajribasida buni isbotlagani haqida turli maqola va monografiyalarida keltirib o`tgan. Professor Gans Berbon 41-yillik ish tajribasiga ega va 70 mingdan oshiq sinusit bilan og`riq bemorlarning

tuzalishida katta hissa qo`shgan jahon sog`liqni saqlash tashkilotining faxriy professoridir va u ko`p yillik ilmiy izlanishlariga binoan sinusitning o`tkir va yuqumli surunkali turlarida bugun butun dunyo tibbiyoti eskicha davu usullaridan keskin voz kechgani uni davolashning yangicha innovatsion metodlari allaqachon mavjudligi va kasalliklarni davolashni yanada rivojlantirishda nitroksidergik tizimdan oqilona foydalanish zarurligini aytib o`tgan va o`zining minglab bemorlarida aynan shu ushuldan foydalanib yuqori samaradorlikka erishgan.

O`zbek olimlaridan professor B.T.Daminov, Amonov Sh.E, Hasanov S.A, N.X.Vohidov kabi ko`plab olimlar ham buni o`zining ilmiy ishlarida tasdiqlashgan. O`tkir sinusitni davolash antibacterial preparatlar bilan umumiy yoki mahalliy terapiyaga asoslangan va bunga parallel ravishda sinuslar drejlanadi, immunitet mustahkamlanadi. Kasalxonaga yotqizish bemorning umumiy ahvolini inobatga olgan holda amalga oshiriladi. modomiki, kasallik yengil bo`lsa yoki o`rtacha bo`lsa u holda mahalliy shifokor nazorati ostida amalga oshiriladi. asgar bemorning ahvoli og`ir yoxud o`ta og`ir bo`lsa, shifoxonada otorinolaringologiya bo`limida maxsus vrach-LORlar tomonidan davolanadi. Davolash albatta shifokordan aniq va puxta egallangan bilimlar, sohadagi innovatsion davolash usullari va bundan tashqari yuqorida keltirib o`tilgan nitroksidergik tizim ko`rsatkichlaridan ham kerakli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ammo uni qo`llashga doir bir qator talablar va tavsiyalarga katta ahamiyat bergan holda davolanish choralari davom ettirish mumkin. Juda ko`plab jahon tibbiyotida ushbu usuldan keng va samarali foydalanib kelayotgani buning yorqin dalilidir. Amerika, Turkiya, Fransiya Germaniya, Hindiston kabi ko`plab mamlakatlarda o`tkazilayotgan ushbu masalaga qaratilgan ilmiy amaliy anjumanlar, konferensiyalarda ham o`z tasdig`ini topayotganligi biz shifokorlar uchun quvonarli holatdir. Jahon tibbiyotidagi hamkasblarimiz bilan birgalikda amalga oshirilayotgan ushbu yangiliklar va ularning amaliyotdagi tasdig`i sinusit bilan og`rigan bemorlarga qo`llangan yangicha davu shakllari va ularning ijobiy ko`rsatgichi bugun bizni yanada sohamizni rivojlantirish uchun katta motivatsiya berayotgani hech kimga sir emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Dvorkin L, Song KY. Herbs for benign prostatic hyperplasia. *Ann Pharmacother.* 2002;36(9):1443-1452.
2. Kern RC, Conley DB, Walsh W, et al. Perspectives on the etiology of chronic rhinosinusitis: an immune barrier hypothesis. *Am J Rhinol.* 2008; 22(6):549-559.
3. Walsh NP, Gleeson M, Shephard RJ, et al. Position statement. Part one: Immune function and exercise. *Exerc Immunol Rev.* 2011; 17:6-63.
4. Woods JA, Vieira VJ, Keylock KT. Exercise, inflammation, and innate immunity. *Immunol Allergy Clin North Am.* 2009; 29(2):381-393.
5. Nachman KE, Parker JD. Exposures to fine particulate air pollution and respiratory outcomes in adults using two national datasets: a cross-sectional study. *Environ Health.* 2012; 11:25.
6. Reh DD, Higgins TS, Smith TL. Impact of tobacco smoke on chronic rhinosinusitis: a review of the literature. *Int Forum Allergy Rhinol.* 2012; 2(5):362-369.
7. Goldstein-Daruech N, Cope EK, Zhao KQ, et al. Tobacco smoke mediated induction of sinonasal microbial biofilms. *PLoS One.* 2011;6(1):e15
8. 1А. Г. Гулюк, д. мед. н., 2С. Д. Варжапетян, к. мед. н., 1А. Э. Ташчян 1Одесский национальный медицинский университет 2 Государственное заведение «Запорожская медицинская академия последипломного образования Министерства здравоохранения Украины»
9. A. G. Gulyuk, S. D. Varzhapetyan, A. E. Tashchyan 1The department of operative dentistry ONMedU Odessa 2The department of surgical and therapeutic dentistry SE "ZMAPE of the MH of Ukraine" Zaporozhye